




QISHLOQ, O'RMON VA BALIQCHILIK XO'JALIGI

2023- YIL YANVAR-DEKABR OYLARI


Dastlabki ma’lumotlarga ko‘ra, 2023- yilning yanvar-dekabr oylarida qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi mahsulot (xizmat)larining umumiy hajmi **426 264,0** mlrd. so‘mni shu jumladan, dehqonchilik va chorvachilik, ovchilik va ushbu sohalarda ko‘rsatilgan xizmatlar – **411 594,6** mlrd. so‘mni, o‘rmon xo‘jaligi – **10 399,5** mlrd. so‘mni, baliqchilik xo‘jaligi – **4 269,9** mlrd. so‘mni tashkil qildi.

2023- yilning yanvar-dekabr oylarida qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi mahsulot (xizmat)lari umumiy hajmi



Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi mahsulot (xizmat)lari yalpi ishlab chiqarishi – sohada o‘z iste‘moli va sotish uchun yaratilgan mahsulot va xizmatlarning umumiy qiymati. Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi mahsulot (xizmat)lari yalpi ishlab chiqarishi dehqonchilik va chorvachilik mahsulot (xizmat)lari yalpi ishlab chiqarishi, ovchilik xo‘jaligida, o‘rmonchilik va yog‘och tayyorlash, baliq ovlash va akvakultura sohasida yetishtirilgan mahsulot (xizmat)lar qiymati asosida shakllantiriladi.

Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi mahsulot (xizmat)lari umumiy hajmining o‘shish sur‘ati dinamikasi (yanvar-dekabr)



2023- yilning yanvar-dekabr oylarida qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi mahsulot (xizmat)larining o‘shish sur‘ati o‘tgan yilning mos davri bilan solishtirganda **104,1 %** ni (2022- yilning yanvar-dekabr oylari mos ravishda 2021- yilning yanvar-dekabr oyiga nisbatan – **103,6 %**) tashkil qildi.




Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi mahsulot (xizmat)lari umumiy hajmining o‘shish sur‘ati (2023- yil yanvar-dekabr)




2023- yilning yanvar-dekabr oylarida dehqonchilik va chorvachilik, ovchilik va ushbu sohalarda ko‘rsatilgan xizmatlarning o‘shish sur‘ati o‘tgan yilning mos davri bilan solishtirganda **104,1 %** ni (2022- yilning yanvar-dekabr oylari mos ravishda 2021- yilning yanvar-dekabr oyiga nisbatan – **103,6 %**), o‘rmon xo‘jaligi – **102,7 %** ni (**101,7 %**), baliqchilik xo‘jaligi – **107,4 %** ni (**106,4 %**) tashkil qildi.

Ma'lumot uchun: Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2023- yilning yanvar-dekabr oylarida tarmoqning ijobiy o'sish sur'atiga, asosan quyidagi mahsulotlarning 2022- yilning mos davriga nisbatan yuqori o'sish sur'ati qayd etilganligi orqali erishildi.



O'zbekiston Respublikasining qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat)lari umumiy hajmining taqsimlanishi



2023- yilning yanvar-dekabr oylari yakunlariga ko'ra, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat)lari umumiy hajmining **96,6 %** i – dehqonchilik va chorvachilik, ovchilik va ushbu sohalarda ko'rsatilgan xizmatlar (2022- yilning yanvar-dekabr oylarida **96,5 %**), **2,4 %** i – o'rmon xo'jaligi (**2,6 %**), **1,0 %** i – baliqchilik xo'jaligi (**0,9 %**) hissasiga to'g'ri keldi.

O‘zbekiston Respublikasida qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi tarmog‘ining YAIM (YAQQ) tarkibidagi ulushi, % da

| | |
|--------------------------------------|-------------|
| Qoraqalpog‘iston Respublikasi | 30,4 |
| Andijon | 38,3 |
| Buxoro | 43,4 |
| Jizzax | 49,2 |
| Qashqadaryo | 41,9 |
| Navoiy | 13,9 |
| Namangan | 41,0 |
| Samarqand | 39,6 |
| Surxondaryo | 48,7 |
| Sirdaryo | 39,2 |
| Toshkent | 22,4 |
| Farg‘ona | 35,5 |
| Xorazm | 45,1 |


Yalpi hududiy mahsulot tarkibida qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligining ulushini hududlar kesimida tahlil qilar ekanmiz, eng yuqori ulush Jizzax (**49,2 %**), shuningdek Surxondaryo (**48,7 %**) viloyatlariga to‘g‘ri kelsa, aksincha kam ulushga ega hududlarga Navoiy (**13,9 %**) va Toshkent (**22,4 %**) viloyatlarini keltirib o‘tish mumkin.



YAIM (YAQQ) tarkibidagi ulushi

2023- yilning yanvar-dekabr oylari yakunlariga ko‘ra, yalpi ichki mahsulot (YAIM) (yalpi qo‘shilgan qiymat (YAQQ)) tarkibida qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligining ulushi **24,3 %** ni tashkil qildi.

Ma‘lumot uchun: 2022- yilda YAIM (YAQQ) tarkibida qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligining ulushi **24,9 %** ni tashkil qilgan.




● Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi
● Boshqalar

Hududlar kesimida qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi
mahsulot (xizmat)larining hajmi, mlrd. so'm


| | |
|----------|----------------------------------|
| 51 216,4 | Samarqand |
| 43 276,3 | Andijon |
| 41 001,6 | Toshkent |
| 40 167,9 | Qashqadaryo |
| 39 421,6 | Farg'ona |
| 38 398,6 | Buxoro |
| 33 655,0 | Surxondaryo |
| 32 824,7 | Namangan |
| 27 807,7 | Xorazm |
| 27 577,1 | Jizzax |
| 19 693,7 | Navoiy |
| 16 548,3 | Qoraqalpog'iston Respublikasi |
| 14 675,1 | Sirdaryo |

2023- yilning yanvar-dekabr oylarida, hududlar kesimida qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat)larining eng yuqori hajmi Samarqand (**51 216,4** mlrd. so'm), Andijon (**43 276,3** mlrd. so'm) va Toshkent (**41 001,6** mlrd. so'm) viloyatlarida qayd etilib, aksincha kam hajmga ega hududlarga Sirdaryo viloyati (**14 675,1** mlrd. so'm) Qoraqalpog'iston Respublikasi (**16 548,3** mlrd. so'm) va Navoiy viloyatini (**19 693,7** mlrd. so'm) keltirib o'tish mumkin.

Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi
mahsulot (xizmat)larining hajmi
(yanvar-dekabr, mlrd. so'm)



Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi mahsulot (xizmat)lari umumiy hajmining hududlar kesimida taqsimlanishi (2023- yil yanvar-dekabr)




Respublikaning qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi mahsulot (xizmat)lari umumiy hajmida Samarqand viloyatining ulushi **12,0 %** ni tashkil etib, hududlar bo‘yicha yetakchilik qilmoqda. Andijon va Toshkent viloyatlari mos ravishda **10,2 %** va **9,6 %** ko‘rsatkichlar bilan keyingi o‘rinlarni egalladi. Eng kam ulush Sirdaryo viloyati (**3,4 %**), Qoraqalpog‘iston Respublikasi (**3,9 %**) va Navoiy viloyatida (**4,6 %**) qayd etildi.


Ma‘lumot uchun: Samarqand va Andijon viloyatlari qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi mahsulot (xizmat)larining umumiy hajmi bo‘yicha Respublikada yetakchi o‘rinlarni egallashi, mazkur hududlarning go‘sh, sut, tuxum, sabzavotlar, kartoshka, uzum, meva va rezavorlar kabi qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini yetishtirishda yuqori ulushga egaligi bilan izohlanadi.

Aksincha, go‘sh, sut, tuxum, donli ekinlar, sabzavotlar, uzum, meva va rezavorlar kabi qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini yetishtirishda Sirdaryo viloyati va Qoraqalpog‘iston Respublikasining hududlar orasida kam ulushga ega ekanligini qayd etish lozim.

Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi mahsulot (xizmat)lari umumiy hajmida eng yuqori va eng kam ulushga ega hududlar (2023- yil yanvar-dekabr)



Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi mahsulot (xizmat)lari umumiy hajmining hududlar kesimida taqsimlanishi



Sezilarli darajadagi yuqori o‘shish sur‘atlari Sirdaryo (106,4 %), Namangan (104,5 %), Samarqand (104,4 %), Qashqadaryo (104,3 %) viloyatlari, Qoraqalpog‘iston Respublikasi, Jizzax va Xorazm viloyatlarida (104,1 % dan) qayd etildi.

Boshqa hududlarga nisbatan pastroq o‘shish sur‘atlari Navoiy (101,9 %), Surxondaryo (103,7 %), Farg‘ona (103,9 %), Buxoro, Toshkent hamda Andijon viloyatlarida (104,0 % dan) kuzatildi.



Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi tarmog'ida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik ko'rsatkichlari (2023- yil yanvar-dekabr)


| | <i>Hajmi mlrd. so'm</i> | <i>O'sish sur'ati, % da</i> | <i>Jamiga nisbatan ulushi, % da</i> |
|-------------------------------------|-----------------------------|-------------------------------------|---------------------------------------------|
| O'zbekiston Respublikasi | 403 974,4 | 103,6 | 94,8 |
| Qoraqalpog'iston Respublikasi | 15 530,9 | 104,1 | 93,9 |
| Andijon | 41 590,5 | 104,0 | 96,1 |
| Buxoro | 37 325,7 | 103,6 | 97,2 |
| Jizzax | 26 747,7 | 104,1 | 97,0 |
| Qashqadaryo | 39 415,8 | 104,6 | 98,1 |
| Navoiy | 18 909,8 | 101,8 | 96,0 |
| Namangan | 30 915,6 | 104,4 | 94,2 |
| Samarqand | 47 974,9 | 104,9 | 93,7 |
| Surxondaryo | 31 679,0 | 101,7 | 94,1 |
| Sirdaryo | 13 319,0 | 101,0 | 90,8 |
| Toshkent | 36 297,2 | 103,1 | 88,5 |
| Farg'ona | 37 501,4 | 103,6 | 95,1 |
| Xorazm | 26 766,9 | 103,6 | 96,3 |

Respublikaning qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat)larining umumiy hajmida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning ulushi **94,8 %** ni tashkil etdi. Ushbu ko'rsatkichni hudular bo'yicha tahlil qilar ekanmiz, jami tarmoqqa nisbatan kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning yuqori ulushiga ega hududlarga Qashqadaryo (**98,1 %**), Buxoro (**97,2 %**), Jizzax (**97,0 %**), Xorazm (**96,3 %**), Andijon (**96,1 %**) va Navoiy (**96,0 %**) viloyatlarini keltirishimiz mumkin.

Ma'lumot uchun: *Qishloq xo'jaligi mahsulotlari – yetishtirilgan dehqonchilik va chorvachilik mahsulotlarining jami qiymatini belgilab, qishloq xo'jaligida yetishtirishning umumiy hajmini ifodalaydi.*


2023- yilning yanvar-dekabr oylarida yetishtirilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari hajmi **404 648,6** mlrd, so'mni yoki 2022- yilning mos davriga nisbatan **103,9 %** ni, shu jumladan, dehqonchilik mahsulotlari **202 679,1** mlrd. so'mni (**104,2 %**), chorvachilik mahsulotlari – **201 969,5** mlrd, so'mni (**103,7 %**) tashkil qildi.

Qishloq xo'jaligi mahsulotlari yetishtirish hajmida dehqonchilik va chorvachilik mahsulotlari ulushining dinamikasi, *yanvar-dekabr*



Qishloq xo'jaligi mahsulotlari umumiy hajmining hududlar kesimida taqsimlanishi

2023- yil yanvar-dekabr




Hududlar kesimida qishloq xo'jaligi mahsulotlarining eng yuqori hajmi Samarqand (**49 140,1** mlrd. so'm), Andijon (**41 278,6** mlrd. so'm) va Qashqadaryo (**38 565,3** mlrd. so'm) viloyatlarida qayd etilib, Sirdaryo viloyati (**13 372,2** mlrd. so'm), Qoraqalpog'iston Respublikasi (**15 349,3** mlrd. so'm), va Navoiy viloyatida (**18 183,5** mlrd. so'm) aksincha, nisbatan pastroq hajmlar kuzatildi.

Hududlar kesimida yetishtirilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari tahliliga ko'ra, yuqori o'sish sur'atlari Sirdaryo (**106,2 %**), Namangan (**104,4 %**), Samarqand (**104,3 %**) va Qashqadaryo (**104,2 %**) viloyatlarida qayd etilib, Navoiy (**101,9 %**), Toshkent va Surxondaryo viloyatlarida (**103,6 %** dan) esa aksincha past o'sish sur'atlari kuzatildi.




Yetishtirilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlarining xo'jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi




Xo'jalik toifalari bo'yicha tahlillarga ko'ra, qishloq xo'jaligi mahsulotlari umumiy hajmining **63,1 %** i dehqon va tomorqa xo'jaliklariga, **29,8 %** i fermer xo'jaliklariga, **7,1 %** i qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri kelmoqda.

Qishloq xo'jaligi mahsulotlari ulushining hududlar bo'yicha xo'jalik toifalari kesimida taqsimlanishi tahlil qilinganda, eng yuqori ko'rsatkichlar barcha hududlarda dehqon va tomorqa xo'jaliklariga to'g'ri kelishi kuzatildi.

Ma'lumot uchun: Asosiy turdagi qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirishda dehqon va tomorqa xo'jaliklarining ulushi quyidagicha:




Yetishtirilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlarining hududlar bo'yicha xo'jalik toifalari kesimida taqsimlanishi



2023- yilning yanvar-dekabr oylari yakuniga ko'ra, yetishtirilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari tarkibidagi fermer xo'jaliklarining ulushi bo'yicha eng yuqori ko'rsatkich Farg'ona viloyatida (**40,0 %**), dehqon va tomorqa xo'jaliklarining yuqori ulushi Navoiy viloyatida (**72,0 %**), qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarning yuqori ulushi Toshkent viloyatida (**17,6 %**) qayd etildi.

Fermer xo'jaliklarining qishloq xo'jaligi mahsuloti tarkibidagi ulushi bo'yicha nisbatan past ko'rsatkich Toshkent viloyatida (**15,5 %**), dehqon va tomorqa xo'jaliklarining eng kam ulushi Sirdaryo viloyatida (**50,4 %**), qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarning eng kam ulushi Farg'ona viloyatida (**3,6 %**) kuzatildi.

Qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirishda xo'jalik toifalarining ulushi



Hududlar kesimida dehqonchilik mahsulotlari hajmi, mlrd. so'm



O'zbekiston Respublikasi 2023- yil yanvar-dekabr




202 679,1 mlrd. so'm



O'sish sur'ati **104,2 %**

Qishloq xo'jaligi mahsulotlarining umumiy hajmdagi ulushi




Yetishtirilgan dehqonchilik mahsulotlari hajmini hududlar kesimida tahliliga ko'ra, yuqori o'sish sur'atlari Sirdaryo (**108,4 %**), Jizzax (**107,2 %**) va Namangan (**105,4 %**) viloyatlarida qayd etilgan bo'lsa, Navoiy (**98,0 %**) hamda Andijon (**102,8 %**) viloyatlarida nisbatan past ko'rsatkichlar kuzatildi.

2023- yilning yanvar-dekabrida barcha toifadagi xo'jaliklar tomonidan **8 426,6** ming t. donli ekinlar (2022- yilning yanvar-dekabriga nisbatan **5,5 %** ga ko'p), **3 574,1** ming t. kartoshka (**3,8 %** ga ko'p), **11 553,7** ming t. sabzavotlar (**3,5 %** ga ko'p), **2 553,5** ming t. poliz (**5,5 %** ga ko'p), **3 121,7** ming t. meva va rezavorlar (**4,1 %** ga ko'p), **1 737,6** ming t. uzum (**1,3 %** ga kam) **3 710,3** ming t. paxta (xom ashyosi) (**6,0 %** ga ko'p) yetishtirildi.

2023- yil yanvar-dekabr oylarida yetishtirilgan asosiy turdagi dehqonchilik mahsulotlari

| | Barcha toifadagi xo'jaliklar | | shu jumladan: | | | | | |
|--------------------|------------------------------|---------------------|---------------------|---------------------|--------------------------------|---------------------|--------------------------------------------------------------|---------------------|
| | | | fermer xo'jaliklari | | dehqon va tomorqa xo'jaliklari | | qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar | |
| | ming tonna | o'sish sur'ati % da | ming tonna | o'sish sur'ati % da | ming tonna | o'sish sur'ati % da | ming tonna | o'sish sur'ati % da |
| Donli ekinlar | 8 426,6 | 105,5 | 6 599,8 | 104,0 | 795,7 | 108,8 | 1 031,1 | 112,8 |
| Sabzavotlar | 11 553,7 | 103,5 | 4 173,4 | 103,3 | 6 924,0 | 102,7 | 456,3 | 120,0 |
| Kartoshka | 3 574,1 | 103,8 | 994,1 | 109,5 | 2 498,6 | 101,5 | 81,4 | 111,1 |
| Poliz ekinlari | 2 553,5 | 105,5 | 1 418,2 | 108,0 | 1 016,3 | 101,9 | 119,0 | 108,0 |
| Meva va rezavorlar | 3 121,7 | 104,1 | 1 415,0 | 105,9 | 1 605,4 | 103,2 | 101,3 | 95,1 |
| Uzum | 1 737,6 | 98,7 | 777,1 | 97,5 | 911,0 | 99,5 | 49,5 | 102,5 |

2023- yil yanvar-dekabr oylarida yetishtirilgan asosiy turdagi dehqonchilik mahsulotlarida xo'jalik toifalarining ulushi



2023- yil yanvar-dekabr oylarida yetishtirilgan asosiy turdagi dehqonchilik mahsulotlari to'g'risidagi ma'lumotlarni xo'jalik toifalari bo'yicha tahlil qilar ekanmiz, donli ekinlar yetishtirishning **78,3 %** i fermer xo'jaliklari hissasiga, **9,5 %** i dehqon va tomorqa xo'jaliklariga, **12,2 %** i qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri kelishini qayd etib o'tish lozim. Shunga mos ravishda sabzavotlarning **36,1 %** i fermer xo'jaliklariga, **59,9 %** i dehqon va tomorqa xo'jaliklariga, **4,0 %** i qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri keldi, shuningdek, kartoshkaning **27,8 %** i fermer xo'jaliklariga, **69,9 %** i dehqon va tomorqa xo'jaliklariga, **2,3 %** i qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri keldi, poliz ekinlarining **55,5 %** i fermer xo'jaliklariga, **39,8 %** i dehqon va tomorqa xo'jaliklariga, **4,7 %** i qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri keldi, meva va rezavorlarning **45,3 %** i fermer xo'jaliklariga, **51,4 %** i dehqon va tomorqa xo'jaliklariga, **3,3 %** i qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri keldi, uzumning **44,7 %** i fermer xo'jaliklariga, **52,4 %** i dehqon va tomorqa xo'jaliklariga, **2,9 %** i qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri keldi.


Respublikada yetishtirilgan donli ekinlar



2023- yil yanvar-dekabr oylarida barcha toifadagi xo'jaliklarda yetishtirilgan donli ekinlar **8 426,6** ming tonnani, yoki 2022- yilning mos davri bilan solishtirganda **105,5 %** ni tashkil etdi.

2022- yilning mos davriga nisbatan ko'rsatib o'tilgan davrlarda, fermer xo'jaliklarida **4,0 %**, dehqon va tomorqa xo'jaliklarida **8,8 %** va qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarda **12,8 %** o'sish qayd etildi.

Hududlar bo'yicha donli ekinlar yetishtirish



Don ekinlarini yetishtirish bo'yicha hududlar o'rtasida peshqadamlikni Farg'ona viloyati egalladi. Uning, don ekinlari umumiy hajmidagi ulushi **11,0 %**.

Shu bilan bir qatorda, yuqori ulush Samarqand (**10,7 %**), Qashqadaryo (**9,7 %**), Surxondaryo (**8,9 %**), Andijon (**8,6 %**) va Jizzax (**8,3 %**) viloyatlarida qayd etildi.

Umumiy hajmdagi past ulush, Navoiy viloyati (**3,1 %**) va Qoraqalpog'iston Respublikasi (**3,7 %**) da kuzatildi.

Yuqori o'sish sur'atlari Samarqand (**108,8 %**), Sirdaryo (**108,4 %**), Xorazm (**107,5 %**), Farg'ona (**106,8 %**), Toshkent (**106,4 %**) va Buxoro (**105,5 %**) viloyatlarida qayd etildi.




Respublikada yetishtirilgan sabzavotlar



2023- yil yanvar-dekabr oylarida barcha toifadagi xo'jaliklarda yetishtirilgan sabzavotlar **11 553,7** ming tonnani, yoki 2022- yilning mos davri bilan solishtirganda **103,5 %** ni tashkil etdi.

2022- yilning mos davriga nisbatan ko'rsatib o'tilgan davrlarda, fermer xo'jaliklarida **3,3 %**, dehqon va tomorqa xo'jaliklarida **2,7 %** va qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarda **20,0 %** o'sish qayd etildi.

Hududlar bo'yicha sabzavotlar yetishtirish



Yetishtirilgan sabzavot umumiy hajmining eng yuqori ulushi Andijon viloyati (**15,3 %**) hissasiga to'g'ri keldi. Shuningdek, yuqori ulush Samarqand (**13,7 %**), Farg'ona (**11,4 %**), Surxondaryo (**10,1 %**) va Toshkent (**10,0 %**) viloyatlarida qayd etildi.

Past ko'rsatkichlar Sirdaryo viloyati (**2,6 %**) Qoraqalpog'iston Respublikasi va Navoiy viloyatida (**2,9 %**) kuzatildi.

2022- yilning mos davriga nisbatan yuqori o'sish sur'atlari Farg'ona (**105,5 %**), Toshkent (**104,8 %**), Qashqadaryo (**104,8 %**), Navoiy (**104,6 %**) viloyatlari, Qoraqalpog'iston Respublikasi (**104,5 %**), Jizzax (**104,1 %**), Namangan (**104,0 %**) viloyatlarida qayd etildi.




Respublikada yetishtirilgan kartoshka



2023- yil yanvar-dekabr oylarida barcha toifadagi xo'jaliklarda yetishtirilgan kartoshka **3 574,1** ming tonnani, yoki 2022- yilning mos davri bilan solishtirganda **103,8 %** ni tashkil etdi.

2022- yilning mos davriga nisbatan ko'rsatib o'tilgan davrlarda, fermer xo'jaliklarida **9,5 %**, dehqon va tomorqa xo'jaliklarida **1,5 %** va qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarda **11,1 %** o'sish qayd etildi.

Hududlar kesimida kartoshka yetishtirish




Kartoshka yetishtirish umumiy hajmining eng yuqori ulushi Samarqand viloyati (**20,3 %**) hissasiga to'g'ri keldi. Bundan tashqari, Andijon (**12,3 %**) va Toshkent (**10,8 %**) viloyatlarida ham kartoshka yetishtirishning yuqori ko'rsatkichlari qayd etildi.

Kartoshka yetishtirishning umumiy hajmidagi ulushining eng past ko'rsatkichlari Sirdaryo (**1,9 %**) va Navoiy (**2,5 %**) viloyatlariga to'g'ri keldi.

Joriy davrda yuqori o'sish sur'atlari Qashqadaryo (**105,2 %**), Navoiy (**104,8 %**), Samarqand (**104,8 %**), Jizzax (**104,7 %**), Namangan (**104,4 %**), Farg'ona (**104,1 %**) va Andijon (**104,1 %**) viloyatlarida qayd etildi.




Respublikada yetishtirilgan poliz ekinlari



2023- yil yanvar-dekabr oylarida barcha toifadagi xo'jaliklarda yetishtirilgan poliz ekinlari **2 553,5** ming tonnani, yoki 2022- yilning mos davri bilan solishtirganda **105,5 %** ni tashkil etdi.

2022- yilning mos davriga nisbatan ko'rsatib o'tilgan davrlarda, fermer xo'jaliklarida **8,0 %**, dehqon va tomorqa xo'jaliklarida **1,9 %** va qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarda **8,0 %** o'sish qayd etildi.

Hududlar kesimida poliz mahsulotlarini yetishtirish



Poliz ekinlari yetishtirish umumiy hajmining eng katta ulushi Surxondaryo viloyati (**13,2 %**) hissasiga to'g'ri keldi. Shu bilan bir qatorda, Jizzax (**11,8 %**), Sirdaryo (**11,5 %**) va Andijon (**8,4 %**) viloyatlarida yuqori ko'rsatkichlar qayd etildi.

Shuningdek, poliz ekinlari umumiy hajmida eng kam ulush, Toshkent (**2,7 %**) va Navoiy (**4,1 %**) viloyatlari hissasiga to'g'ri keldi.

Joriy davrda yuqori o'sish sur'atlari Farg'ona (**113,8 %**), Qashqadaryo (**109,9 %**), Toshkent (**107,1 %**), Samarqand (**106,7 %**) viloyatlari, Qoraqalpog'iston Respublikasi (**105,8 %**) va Sirdaryo viloyatida (**105,5 %**) qayd etildi.




Respublikada yetishtirilgan meva va rezavorlar



2023- yil yanvar-dekabr oylarida barcha toifadagi xo'jaliklarda yetishtirilgan meva va rezavorlar **3121,7** ming tonnani, yoki 2022- yilning mos davri bilan solishtirganda **104,1 %** ni tashkil etdi.

2022- yilning mos davriga nisbatan ko'rsatib o'tilgan davrlarda, fermer xo'jaliklarida **5,9 %**, dehqon va tomorqa xo'jaliklarida **3,2 %** o'sish qayd etildi. Aksincha qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarda **4,9 %** kamayish kuzatildi.

Hududlar kesimida meva va rezavorlar yetishtirish



Yetishtirilgan meva va rezavorlar umumiy hajmida hududlar bo'yicha eng katta ulush Andijon (**22,3 %**), Farg'ona (**12,9 %**), Samarqand (**12,0 %**), Namangan (**11,7 %**) va Buxoro (**9,7 %**) viloyatlari hissasiga to'g'ri keldi.

Shu bilan birga, meva va rezavorlar umumiy hajmida eng kam ulush, Sirdaryo viloyatida (**1,5 %**) va Qoraqalpog'iston Respublikasida (**2,2 %**) kuzatildi.

Ko'rsatib o'tilgan davrlarda yuqori o'sish sur'atlari Qashqadaryo (**107,3 %**), Namangan (**105,8 %**) viloyatlari, Qoraqalpog'iston Respublikasida (**105,8 %**), Navoiy (**105,1 %**), Samarqand (**104,8 %**) Sirdaryo (**104,6 %**), Farg'ona (**104,5 %**) Jizzax viloyatida (**104,4 %**) qayd etildi.




Respublikada yetishtirilgan uzum



2023- yil yanvar-dekabr oylarida barcha toifadagi xo'jaliklarda yetishtirilgan uzum **1 737,6** ming tonnani, yoki 2022- yilning mos davri bilan solishtirganda **98,7 %** ni tashkil etdi.

2022- yilning mos davriga nisbatan ko'rsatib o'tilgan davrlarda, qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarda **2,5 %** o'sish qayd etildi. Aksincha fermer xo'jaliklarida **2,5 %** va dehqon va tomorqa xo'jaliklarida **0,5 %** kamayish kuzatildi.

Hududlar kesimida uzum yetishtirish



Yetishtirilgan uzum umumiy hajmining qariyb uchdan bir qismi Samarqand viloyati (**36,8 %**) hissasiga to'g'ri keldi. Shuningdek, yuqori ulush Buxoro (**12,7 %**), Farg'ona (**10,3 %**), Namangan (**8,7 %**) va Qashqadaryo (**6,3 %**) viloyatlarida qayd etildi.

Shu bilan birga, uzum yetishtirish umumiy hajmidagi eng kam ulush Qoraqalpog'iston Respublikasida (**0,7 %**), Sirdaryo viloyatida (**0,9 %**) kuzatildi.

2022- yilga nisbatan yuqori o'sish sur'atlari Namangan (**106,6 %**), Qashqadaryo (**104,2 %**), Samarqand (**103,4 %**), Sirdaryo (**103,0 %**), Xorazm (**102,6 %**) viloyatlari, Qoraqalpog'iston Respublikasida (**102,2 %**), Buxoro (**102,1 %**), Andijon (**100,6 %**), Jizzax (**100,1 %**) viloyatlarida qayd etildi.

Respublikada jami yetishtirilgan chorvachilik mahsulotlari tarkibida eng katta ulush Qashqadaryo (**11,6 %**), Samarqand (**11,3 %**) va Toshkent (**9,8 %**) viloyatlariga to'g'ri keldi.

Hududlar kesimida chorvachilik mahsulotlari hajmi, mlrd. so'm


| | |
|------------------------|----------|
| Qashqadaryo | 23 511,3 |
| Samarqand | 22 844,1 |
| Toshkent | 19 851,7 |
| Buxoro | 19 174,3 |
| Andijon | 16 364,7 |
| Jizzax | 16 180,5 |
| Surxondaryo | 15 972,6 |
| Farg'ona | 15 250,7 |
| Xorazm | 14 463,3 |
| Namangan | 12 613,8 |
| Navoiy | 11 882,9 |
| Qoraqalpog'iston Resp. | 8 200,9 |
| Sirdaryo | 5 658,7 |

O'zbekiston Respublikasi

2023- yil yanvar-dekabr



Qishloq xo'jaligi mahsulotlarining umumiy hajmdagi ulushi



Yetishtirilgan chorvachilik mahsulotlari o'sish sur'atini hududlar kesimidagi tahliliga ko'ra, yuqori o'sish sur'atlari Andijon (**106,0 %**), Samarqand (**104,4 %**), Toshkent (**104,3 %**) viloyatlarida qayd etildi.

2023- yil yanvar-dekabr oylarida yetishtirilgan asosiy turdagi chorvachilik mahsulotlari va ovlangan baliqlar


| | Barcha toifadagi xo'jaliklar | | shu jumladan: | | | | | |
|--------------------------|------------------------------|---------------------|---------------------|---------------------|--------------------------------|---------------------|--------------------------------------------------------------|---------------------|
| | | | fermer xo'jaliklari | | dehqon va tomorqa xo'jaliklari | | qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar | |
| | ming tonna | o'sish sur'ati % da | ming tonna | o'sish sur'ati % da | ming tonna | o'sish sur'ati % da | ming tonna | o'sish sur'ati % da |
| Go'sht (tirik vaznda) | 2 833,3 | 103,9 | 179,0 | 105,1 | 2 406,6 | 102,0 | 247,7 | 126,6 |
| Sut | 11 968,7 | 102,9 | 706,7 | 112,2 | 11 104,7 | 102,2 | 157,3 | 116,0 |
| Tuxum mln, dona | 8 487,5 | 104,4 | 1 329,8 | 111,0 | 4 912,8 | 102,2 | 2 244,9 | 105,6 |
| Jun | 38,6 | 103,6 | 4,6 | 101,0 | 31,7 | 104,7 | 2,3 | 94,1 |
| Qorako'l teri, ming dona | 1 321,1 | 102,6 | 142,0 | 110,0 | 1 045,4 | 100,4 | 133,7 | 113,6 |
| Baliq | 198,9 | 107,3 | 98,6 | 104,0 | 10,3 | 102,2 | 90,0 | 111,9 |

Chorvachilik sohasining ichki imkoniyatlarini oshirish bo'yicha chora-tadbirlarning izchil amalga oshirilib borilayotganligi, shuningdek, ularga davlat tomonidan tizimli yordam ko'rsatilib kelinayotganligi chorva mollari bosh sonining ko'payishiga, ichki iste'mol bozorlarini chorvachilik mahsulotlari bilan to'ldirishga imkon yaratdi.

2023- yilning yanvar-dekabr oylarida barcha toifadagi xo'jaliklar tomonidan tirik vaznda **2 833,3** ming t. go'sht, **11 968,7** ming t. sut, **8 487,5** mln. dona tuxum, **38,6** ming tonna jun, **1 321,1** ming dona qorako'l teri yetishtirildi va **198,9** ming t. baliq ovlandi.

Hisobot davrida tirik vaznda yetishtirilgan go'sht hajmi o'tgan yilning mos davriga nisbatan **103,9** % ni, sog'ib olingan sut – **102,9** % ni, olingan tuxum – **104,4** % ni, qirqib olingan jun – **103,6** % ni, olingan qorako'l teri – **102,6** % ni hamda ovlangan baliqlar – **107,3** % ni tashkil qildi.

2023- yil yanvar-dekabr oylarida yetishtirilgan asosiy turdagi chorvachilik mahsulotlari va ovlangan baliqlar



2023- yil yanvar-dekabr oylarida yetishtirilgan chorvachilik mahsulotlari to'g'risidagi ma'lumotlarni xo'jalik toifalari bo'yicha tahlil qilar ekanmiz, yetishtirilgan go'shtning umumiy hajmidan **6,3 %** i fermer xo'jaliklari hissasiga, **84,9 %** i dehqon va tomorqa xo'jaliklariga, **8,8 %** i qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri kelishini qayd etib o'tish lozim.

Shunga mos ravishda sog'ib olingan sutning **5,9 %** i fermer xo'jaliklari, **92,8 %** i dehqon va tomorqa xo'jaliklari, **1,3 %** i qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar hissasiga to'g'ri keldi.


Shu bilan birga, olingan tuxumning **15,7 %** i fermer xo'jaliklariga, **57,9 %** i dehqon va tomorqa xo'jaliklariga, **26,4 %** i qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri keldi.

Shuningdek, qirqib olingan junning **11,9 %** i fermer xo'jaliklariga, **82,1 %** i dehqon va tomorqa xo'jaliklariga, **6,0 %** i qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri keldi.

Bundan tashqari, olingan qorako'l terining **10,8 %** i fermer xo'jaliklariga, **79,1 %** i dehqon va tomorqa xo'jaliklariga, **10,1 %** i qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri keldi.

